

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

XORAZM XALQ MAQOLLARIDAGI MUROJAAT BIRLIKLARINING MAVZU GURUHLARI VA MA’NOVIY XUSUSIYATLARI

Ro‘zmatova Nargiza

NDPI 1-kurs doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm xalq maqollari tarkibida uchraydigan murojaat birliklarning mavzu guruhlari va ularning ma’naviy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Maqollardagi murojaat birliklarining mavzu guruhlari olingan misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: maqol, murojaat birliklari, onomastik birliklar, do‘stim, kelin, qiz.

Аннотация. В данной статье рассматриваются предметные группы референций, встречающиеся в хорезмских народных пословицах, и их духовная характеристика. Тематические группы референций в пословицах доказываются примерами.

Ключевые слова: пословица, единицы отсчета, ономастические единицы, друг, невеста, девушка.

Abstract. This article discusses the subject groups of reference units found in Khorezm folk proverbs and their spiritual characteristics. Thematic groups of reference units in proverbs are proved by examples.

Key words: proverb, units of reference, onomastic units, friend, bride, girl.

Xalqimiz hayot tajribalaridan olgan xulosalari asosida yuzaga kelgan, folklor janr turlaridan biri bu maqoldir. Maqol qisqa va lo‘nda, obrazli yoki obrazsiz, grammatik va mantiqiy jihatdan tugallangan ma’noli hikmatli ibora, gap. “Maqol” atamasi arab tilidagi “qavlun” ya’ni, gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan. Demak, maqol atamasini hikmatli so‘z ma’nosida qabul qilish mumkin. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida, kitobni “hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar” bilan bezaganligini aytadi [1:2]. “Devonu lug‘atit turk” asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o‘rin olgan, undan tashqari so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Turkiy xalqlarning madaniy merosiga voris sifatida har bir o‘zbek ular bilan faxrlansa arziydi.

Xalq og‘zaki ijodi haqida ish olib borgan dunyodagi olimlar maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo‘lgan munosabatini aks etganini alohida ta’kidlaydilar. Folklor shunoslik ilmida shoir va yozuvchilar tomonidan xalq maqollarining asar matnida keltirilishi folklorizm deb ataladi. Bu holat ijodkorning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabati ijobiy ekanini tasdiqlaydi. Maqollar mazmun mundarijasiga ko‘ra ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy masalalarga oid mavzulardan iboratdir. Ularda o‘zbekning vataniga, xalqiga, mehnatga, ilmga, hunarga, oilaga, mardlikka, ahillikka bo‘lgan

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

munosabatlari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Xorazm xalq maqollarida uchraydigan murojaat birliklarini quydagicha mavzu guruhlariga ajratdik:

1. Qarindoshlik terminlari bilan bog‘liq murojaat birliklari.
2. Onomastik birliklar bilan bog‘liq murojaat birliklari.
3. Hayvonlar bilan bog‘liq murojaat birliklari.
4. Kasb-hunar va lavozim-unvon bilan bog‘liq murojaat birliklari.

Keltirilgan mavzu guruhlarini maqollar tarkibida uchrashini ko‘rib chiqamiz:

1. Qarindoshlik terminlari bilan bog‘liq murojaat birliklari. O‘zbek tilining sheva va dialektlarida qarindoshlik terminlariga naqadar boy ekanligi A. Ishayev tomonidan e‘lon qilingan ilmiy ishda juda keng tarzda yoritib berilgan [2:1]. Murojaat birliklarining o‘rganilishi bo‘yicha qilingan tadqiqot ishlaridan Z. Akbarova murojaat leksikonini tematik jihatdan 18 ta guruhga [3:5], N. Ahmedova kishilarga qaratilgan murojaat birliklarini semantik jihatdan 7 ta guruhga ajratadi [4:3].

Bu dunyo o‘tar-getar, dōstim, boshiqni gōtar. Ushbu maqol tarkibida qatnashgan “*dōstim*” so‘zi murojaat birligi vazifasini bajarib kelgan bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “*do‘st*” so‘zi qarashlari, dili, ish faoliyati, yaqin bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq kishining har biriga nisbatan ishlatiladi [5:6]. Endi maqolning ma‘nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tirikchilik o‘tkazishda qiynalib, boshi qotib, ma‘yus bo‘lib yurgan odamga: ”Qo‘y, xafa bo‘lma, bu qiyinchiliklar ham o‘tib ketadi, boshingni egma, qaddingni bukma, bardam bo‘l, hayotga tik qara!”, degan ma‘noda tasalli berganlarida, uni ruhlantirganlarida shu maqolni aytadilar [6:7]. Ba‘zi manbalarda “*do‘stim*” murojaati o‘rniga “*jo‘ra*” murojaati ham ishlatiladi. Ushbu murojaat birliklari gapda xitob va murojaat qilish (apellyativ vazifa)dan tashqari, qo‘shimcha yaqinlik (konnotativ vazifa) va his-tuyg‘uni (emotiv) ifodalab kelgan. Maqollarda mantiq kuchi baland bo‘lganligi sababli, fikr ishonarli va bahs-munozaraga o‘rin qoldirilmagan. Shu sababli ulardan nutqimizning istalgan joyida, istalgan maqsadda foydalanish mumkin. Shunga qaramay, maqollar, odatda, so‘zlovchi tarafidan jiddiy tusda aytiladi va qabul qilinadi. Lekin ba‘zan maqollar tarkibidagi murojaat birliklari kinoya, piching, istehzo, zaharxanda ma‘nolarda ham ishlatilishi mumkin: *Qizim, sāngā aytaman, gālinim, san eshit.* Ba‘zan shunday bo‘ladiki, bir gapni (turli sabablarga ko‘ra) tegishli odamlarning yuziga bevosita aytmaydilar-da, uning ishtirokida (yoxud u yo‘g‘ida) boshqa birovga aytadilar. Tegishli odam ziyrak, uquvli bo‘lsa, bu gap uning o‘ziga tegishli ekanligini darhol fahmlab oldi va shunga ko‘ra ish tutadi [7:7]. Ya‘ni biror gap so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning “egasiga” emas, balki uni eshittirgan holda piching va kinoya tarzida o‘zgaga aytishni bildiruvchi maqol. Murojaat birligi vazifasini bajargan “qiz” so‘ziga nutq yo‘naltirilgan bo‘lsa ham, uni qabul qilib oluvchi nutq egasi sifati “kelin” murojaati

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qo‘llanilgan. *Ötir qizim, örnini topasan* maqolida esa hech qanday konnotativ ma‘nolarsiz nutq faqat “qizga” qarata aytilgan. Ushbu murojaat birliklarining etimologiyasiga biroz to‘xtalsak. Qiz – “ayol jinsiga mansub farzand”, “balog‘at yoshiga yetmagan ayol”. *Kelin* – turmushga chiqayotgan yoki yaqinda chiqqan ayol. *Kuyov bilan kelin mening oldimda, hozir boradi* (Abdulla Qahhor). Bu so‘z asli qadimgi turkiy tilda boshqa joydan yaqinlashish tomonga harakatlanish ma‘nosini anglatuvchi “kel” fe‘lidan ot yasovchi - (i)n qo‘shimchasi bilan yasalgan deyiladi: kel- + in = kelin[8:6].

2. Onomastik birliklar bilan bog‘liq murojaat birliklari. Atoqli otlar til lug‘at sistemasida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, katta bir guruh so‘zlarni tashkil qiladi. Atoqli otlar fanda onomastik birliklar tizimida o‘rganiladi. Onomastika – grekcha so‘z bo‘lib, nom qo‘yish san‘ati demakdir. Uning quyidagi bo‘limlari mavjud: antroponimlar (kishi nomlari), toponimlar (joy nomlari), zoonimlar (hayvon nomlari), fitonimlar (o‘simlik nomlari), teonimlar (diniy nomlar), astroponimlar (koinot nomlari), dokumentonimlar (hujjat nomlari), xronimlar (tarixiy hodisa nomlari).

Onomastik birliklarning maqollar tarkibida murojaat birligi vazifasida kelish juda kam hollarda uchraydi. Kishi nomi bilan bog‘liq: *Ayoz, körgan kunij unutma, kön chorig‘ij quritma*. Ushbu maqol tarkibidagi “Ayoz” murojaat birligi ism ma‘nosida ishlatilgan. Maqolning ma‘nosi shunday, Ayoz ismli oddiy bir cho‘pon aqlliligi va hozirjavobligi tufayli xon vaziri darajasiga ko‘tariladi. U cho‘ponlikda kechirgan og‘ir kunlarini unutmaslik uchun chorig‘ini hammavaqt ko‘zi tushib turadigan joyga- o‘z xonasining eshigi tepasiga osib qo‘ygan ekan. Har gal chorg‘iga ko‘zi tushganida o‘ziga-o‘zi:” Ayoz, ko‘rgan kuning unutma, ko‘n chorig‘ing quritma!”, deb qo‘yarkan. Bu maqolni biror yuqori martabaga mingacha (yohud katta boylikka ega bo‘lgach), o‘zining avvalgi holini unutgan, o‘zidan pastroq martabadagilarni (yohud kambag‘allarni) mensimay qo‘ygan kishilarga nisbatan aytadilar [9:7]. Maqolda “ko‘n chorig‘ing quritma” deyilishiga sabab shundaki, o‘tmishda ko‘ndan (xom teridan) tikilgan choriq qovjirab yorilib ketmasligi uchun vaqti-vaqti bilan moylab turishgan. Bundan tashqari tarixiy joy nomi sanalgan Qoraqalpog‘iston hududiga joylashgan *Ayoz qal‘a* nomining kelib chiqish tarixi ham ushbu rivoyat bilan bog‘liq degan farazlar ham bor. “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi” kitobida: *ayaz*: sovuq, ochiq, sovuq havo: *Qar yag‘di dab sovunmag ayazlari voladi, xo‘ja galdi dab sovunmang niyazlari voladi*, maqoli misol qilib berilgan [11]. Xorazm folklorida yana “*Yomonni yozda ayoz uradi*“ maqolida ham “*ayoz*” so‘zi “*sovuq*“ degan ma‘noni bildirib, “*Yomonni yozda grip uradi*” tarzida ham ishlatiladi.

3. Hayvonlar bilan bog‘liq murojaat birliklari.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Bunday murojaat shakllari asosan ramziy ma’noda ishlatiladi va ularda konnotativ sema kuchli tarzda o‘z ifodasini topadi. Masalan, Xorazmda “qaysar”, “o‘jar”, “hasadgo‘y” insonlarga nisbatan, *Eshak, eshakdan qolsa qulaq-burnini kasar*, maqoli qo‘llaniladi.

4. Kasb-hunar va lavozim-unvon bilan bog‘liq murojaat birliklari.

Akkanda yo‘q dikkanda yo‘q, xirmanda hazir, xo‘jalar! “*Xo‘jalar*” murojaat birligining kelib chiqish tarixiga nazar solsak, (forscha — xo‘jayin, sohib) – islom mamlakatlarida turli davrlarda turlicha ma’noda ishlatilib kelingan faxriy unvon va murojaat shakli. Ijtimoiy tabaqa sifatida sayyidlardan keyingi o‘rinda turgan kishilarga nisbatan ishlatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishayev A. O‘zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlari. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent, 1971.
2. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent, 1967.
3. Ahmedova N. O‘zbek tili murojaat birliklari. – Toshkent, 2009.
4. Madrahimov O. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi. – Toshkent, 1973.
5. Akbarova Z. O‘zbek tilida murojaat shakllari. – Toshkent, 2015 .
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. T.I. – M., 1981.
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.-324-bet.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. I jild. – T.:2003. 537-bet
9. Ziyo net.uz.